



TALABALAR KASBIY MOSLASHUVINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TA'SIRINI O'RGANISH

QDU “Maktabgacha ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

Muminova Gulasal Baxodirovna

Talaba: **Xolmirzayeva Mohinabonu Bekmirza qizi.**

Annotatsiya: Talabalarning kasbiy moslashuv jarayonining psixologik-pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Ta’lim muassasalarida o’quv jarayonini tashkil etish, talabalarning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda kasbiy moslashuvga ta’sir etuvchi omillar o’rganiladi. Shuningdek, psixologik qo’llab-quvvatlash, pedagogik yondashuvlar va innovatsion ta’lim texnologiyalarining talabalarning kasbiy shakllanishiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida talabalarning kasbiy moslashuvini samarali tashkil etish bo’yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: kasbiy moslashuv, talabalar, psixologik omillar, pedagogik ta’sir, ta’lim jarayoni, shaxs rivoji, kasbiy shakllanish, innovatsion ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, kompetensiya.

Аннотация: В данной статье анализируются психолого-педагогические аспекты процесса профессиональной адаптации студентов. Рассматриваются факторы, влияющие на профессиональную адаптацию, с учётом организации учебного процесса в образовательных учреждениях, а также индивидуальных особенностей, интересов и способностей студентов. Кроме того, освещается влияние психологической поддержки, педагогических подходов и инновационных образовательных технологий на профессиональное становление студентов. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по эффективной организации профессиональной адаптации студентов.

Ключевые слова: профессиональная адаптация, студенты, психологические факторы, педагогическое воздействие, образовательный процесс, развитие личности, профессиональное становление, инновационные образовательные технологии, мотивация, компетенция.

Annotation: This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of the process of students’ professional adaptation. It examines the factors influencing professional adaptation, taking into account the organization of the educational process in institutions, as well as students’ individual characteristics, interests, and abilities. The study also highlights the impact of psychological support, pedagogical approaches, and innovative educational technologies on students’ professional development. Based on the research findings, practical recommendations for effectively organizing students’ professional adaptation have been developed.

Keywords: professional adaptation, students, psychological factors, pedagogical influence, educational process, personal development, professional formation, innovative educational technologies, motivation, competence

Hozirgi globallashuv va jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri — raqobatbardosh, mustaqil fikrlay oladigan va o’z kasbiga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalarning kasbiy moslashuv jarayonini samarali tashkil etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kasbiy moslashuv nafaqat talabani tanlagan sohasiga nisbatan bilim va ko’nikmalarni egallashi, balki uning psixologik tayyorgarligi, shaxsiy sifatlari va ijtimoiy muhitga moslasha olish qobiliyati bilan ham chambarchas bog’liqdir.

Talabalarning kasbiy moslashuviga ta’sir etuvchi omillar orasida psixologik va pedagogik jihatlar alohida o’rin tutadi. Psixologik omillar sifatida talabani motivatsiyasi, qiziqishlari, qadriyatlari va individual xususiyatlari namoyon bo’lsa, pedagogik omillar esa ta’lim jarayonini tashkil etish, o’qitish usullari va o’qituvchi bilan o’zaro munosabatlarda aks etadi. Mazkur omillarni chuqur o’rganish va ularni amaliyotda samarali qo’llash talabalarning kasbiy shakllanishi va kelajakdagi mehnat faoliyatida muvaffaqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar talabalarning faolligini oshirish, mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini rivojlantirish hamda ularning kasbiy moslashuv jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur maqolada talabalarning kasbiy moslashuvining psixologik-pedagogik ta’sirini har tomonlama tahlil qilish va uni takomillashtirish yo’llarini aniqlash asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Moslashuv muammosi ta’limning har bir darajasi (bosqichi) uchun dolzarb sanaladi. Maqsadli, mazmuniy va protsessual tarkibiy qismlaridagi bir muncha jiddiy farqlarga qaramay, har bir ta’lim bosqichida moslashuv ham o’ziga xoslik, ham umumiylikka ega.

Moslashuvga ehtiyoj insonda u qandaydir yangi tizim bilan ma’lum nomuvofiqlik sharoitida o’zaro hamkorlik qila boshlaganida yuzaga keladiki, bu holat o’zgarishlarga zaruratni keltirib chiqaradi. Bu o’zgarishlar insonning o’zi yoki u hamkorlik qilayotgan tizim, shuningdek, ular o’rtasidagi o’zaro ta’sir (hamkorlik) xarakteri bilan bog’liq bo’lishi mumkin. Boshqacha aytganda, insonning moslashuv jarayonini ishga tushiradigan mexanizm uni o’rab turgan muhitning almashinuvi sanaladi, bunda inson uchun odatiy xulq-atqor kam samara beradi, yo umuman samarasiz bo’lib chiqadi, shunga ko’ra aynan sharoitlarning yangiligi bilan bog’liq qiyinchiliklarni yengish zarurati yuzaga keladi.

Moslashuv kategoriyasi tirik organizmning muhit bilan aloqasini belgilovchi tobora umumiy tushunchalar sirasiga kiritiladi. 1865 yilda Aubert tomonidan adekvat qo’zg’atuvchining uzoq muddatli ta’siriga sezgirlikning o’zgarishini ifodalar uchun kiritilgan mazkur termin hayot haqidagi falsafa, fiziologiya, tibbiyot, psixologiya, pedagogika kabi fanlarning markaziy tushunchalaridan biriga aylandi.

Adaptatsiya (moslashuv) fenomenining ko’plab ta’riflari mavjud. Umumlashma ko’rinishda moslashuv o’zgaruvchan sharoitlarda adekvat mavjud bo’lish uchun zarur

moslashish, shuningdek, individning yangi muhitga kirishish jarayoni, uning yangisharoitlarni o‘zlashtirishi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilarning katta qismi inson moslashuvining o‘ziga xosligini uning atrof muhitga faol ongli ta’sir ko‘rsata olib qobiliyati bilan izohlaydi. Jonivorlarning turli vakillari bilan solishtirganda nafaqat biologik, balki rivojlangan ijtimoiy bazaga ega bo‘lgan insonning moslashuv imkoniyatlari “nozik bo‘g‘inlarning” tobora keng spektri bilan ta’riflanadi. Ijtimoiy moslashuv individning ijtimoiy guruhga integratsiyalash jarayoni, u guruh me’yorlari, qadriyatlari, standartlari, stereotiplari va talablarini qabul qilishni nazarda tutadi.

Zamonaviy sotsiologiya va psixologiyada moslashuv tushunchasi shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasida uyg‘unlashgan o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish jarayoni v anantijasi sifatida qaraladi. J. G. Senokosovning yozishicha, moslashuvning mohiyati – moslashish sub’ektini muhit (moslashish ob’ekti) ning talablariga optimal muvofiqlashtirish. Barqarorlik buzilganda (sub’ekt boshqa muhitga ko‘chganida yoki muhitning o‘zi o‘zgarganida) tizimda sub’ekt bilan ob’ekt o‘zaro hamkorligida nomuvofiqlik yuzaga keladi. Natijada, funksional buzilish, yaxlitlikning boy berilishi kuzatiladi. Adaptiv vaziyat yuzaga keladi, bunda tizim (yoki uning ayrim elementlari) buzilgan muvozanatni tiklashga intiladi. Bunday vaziyat insonning yangi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro hamkorligida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni hal qilishga qaratilgan maqsadli jarayon sifatida qaraladigan inson moslashuvining barcha turlai uchun xos.

Moslashuv deganda, V. A. Yakunin insonning atrof muhit bilan shunday o‘zaro ta’sirini (hamkorligini) tushunadiki, uning natijasida insonda shu muhitda o‘zgarayotgan sharoitlarga adekvat xulq-atvor modellari va strategiyalari yuzaga keladi. Muallif bu umumiy ta’rifni ta’lim muhiti sharoitlariga nisbatan ham qo‘llash mumkin, deb biladi. Moslashuv jarayonida shaxs ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlarga xulq-atvor strategiyalarini tanlash yoki qayta qurish yo‘li bilan moslashadi. . Masalan, shaxsning o‘zgaruvchan ijtimoiy muhit sharoitlariga optimal muvofiqligi mezoni D. V. Kolesov tomonidan moslashuv jarayonining bosqichlilik modelini yaratishda qo‘llangan. Bu model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga olgan:

Muvozanatlash – qadriyatlar tizimi va xulq-atvor stereotiplariga o‘zaro toqatlilik (bag‘ri kenglik) namoyon qilish bilan muhit va individ o‘rtasida muvozanat o‘rnatish.

Soxta moslashuv – sharoitga tashqi moslashganlikni uning me’yor va talablariga salbiy munosabat bilan birlashtirish.

Ko‘nikish – yangi muhitning asosiy qadriyatlarini tan olish va qabul qilish.

O‘zini o‘xshatish (taqlid) – individning ruhiy qayta yo‘nalganlik olishi, avvalgi qarash, yo‘nalganlik, ustanovkalarini o‘zgartirishi.

Taklif qilingan model anchagina ashrtli sanaladi, bunda tavsiflangan bosqichlar bir-biri bilan mos kelishi, bir paytda ro‘y berishi yoki o‘zaro almashinishi mumkin.

Ye.V. Osipchukova 1-kur talabasi va mos ravishda u mansub bo‘lgan guruhning o‘zi uchun yangi – OTM ijtimoiy-madaniy muhitiga moslashuvda quyidagi bosqichlarni farqlaydi:

- boshlang‘ich bosqich. Bunda individ yoki guruh o‘zi uchun yangi muhitda o‘zini qanday tutishi lozimligini anglaydi, ammo yangi muhitning qadriyatlar tizimini tan olish va qabul qilishga tayyor emas, avvalgi qadriyatlar tizimiga amal qilishga intiladi;

- bag‘ri knglik bosqichi. Individ, gurug‘ va yangi muhit bir-birining qadriyatlar tizimi va xulq-atqor namunalariga o‘zaro toqatni namoyon qiladi;

- akkomodatsiya – individ tomonidan yangi muhitning qadriyatlar tizimining asosiy elementlarining tan olinishi, ayni paytda yangi ijtimoiy-madaniy muhit tomonidan individ, guruhning ayrim qadriyatlari tan olinishi va qabul qilinishi ;

- assimilyatsiya – individ, guruh va muhit qadriyatlarining to‘liq mos kelishi.

Moslashuv jarayonida shaxsiy moslashuv salohiyatini realizatsiyalash natijasida shaxsning ma’lum holati – moslashuv jarayonining natijasi, yakuni sifatida moslashganlikka erishiladi.

Moslashganlikning ma’lum darajasiga erishish inson tomonidan atrof muhit bilan o‘zaro hamkorlik vaziyatida tanlanadigan moslashuv xulqining strategiyalari va bu strategiyalarning o‘zaro qay darajada muvofiq kelishiga bog‘liq.

N.N. Melnikova moslashuv xulqining qator strategiyalarini sanab o‘tadi:

- muhitni faol o‘zgartirish;

- o‘zini faol o‘zgartirish;

- muhitdan ketish va yangisini izlash;

- muhit bilan aloqadan qochish va ichki olamiga g‘arq bo‘lish;

- o‘zini passiv reprezentatsiya qilish;

- muhit sharoitlariga passiv bo‘ysunish ;

- tashki o‘zgarishlarni passiv kutish;

- ichki o‘zgarishlarni passiv kutish.

O‘zini va atrof muhitni bir paytda faol o‘zgartirishga qaratilgan strategiyalarni biriktirish moslashganlikning yuqori darajasini aks ettiradigan tobora moslashuvchanlik samarasini ta’minlashini ko‘rsatib bergan tadqiqotlar mavjud. Ta’lim sub’ektini ta’lim muhitiga shaxsning ichki o‘zgarishlarini talab qilmaydigan tashqi moslashtirish, shuningdek, ikkita muqobil xulq-atvor modeli: muhitdan ketish yoki tashqi va ichki o‘zgarishlarni passiv kutish o‘rtacha natija beradi. Moslashganlikning ifodalangan sobiy samaradorlik bilan yuog‘liq quyi darajasi sub’ektning tashqi muhit bilan o‘zaro hamkorlikdan voz kechishi va o‘z ichki olamiga g‘arq bo‘lishida namoyon bo‘ladi.

Talabalarning kasbiy moslashuvini psixologik-pedagogik jihatdan samarali tashkil etish ta’lim tizimi va mehnat bozori uchun sezilarli iqtisodiy foyda keltiradi. Avvalo, bu jarayon bitiruvchilarning ishga joylashish darajasini oshiradi, ularning mehnat faoliyatiga tez va samarali kirishib ketishini ta’minlaydi. Natijada, korxonalar va tashkilotlarda xodimlarni qayta tayyorlash yoki qo‘shimcha o‘qitish xarajatlari kamayadi.

Shuningdek, kasbiy jihatdan yaxshi moslashgan mutaxassislar mehnat unumdorligini oshiradi, ish sifati va samaradorligini yaxshilaydi. Bu esa o‘z navbatida korxonalarning iqtisodiy barqarorligiga va raqobatbardoshligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim sifati oshirilib, ortiqcha vaqt va resurslar sarfi qisqaradi.

Bundan tashqari, talabalarning kasbiy moslashuvi samarali yo‘lga qo‘yilganda, ishsizlik darajasi kamayadi, bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar yuqori iqtisodiy qaytim beradi va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

- Ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasida mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, dual ta’lim tizimini keng joriy etish;
- Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy moslashuv markazlari va karera xizmatlarini rivojlantirish;
- Ta’lim jarayoniga ish beruvchilarni jalb qilish orqali o‘quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish;
- Talabalar uchun amaliyot va stajirovka imkoniyatlarini kengaytirish, ularni real ish muhitiga yaqinlashtirish;
- Psixologik treninglar va kasbiy rivojlanish dasturlarini joriy etish orqali talabalarning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini oshirish;
- Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali resurs tejamkorligini ta’minlash;
- Davlat va xususiy sektor o’rtasida sheriklikni kuchaytirish orqali ta’limga investitsiyalarni oshirish.

Ushbu chora-tadbirlar talabalarning kasbiy moslashuvini takomillashtirish bilan birga, ta’lim tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning kasbiy moslashuv jarayoni ko‘p qirrali bo‘lib, u psixologik va pedagogik omillar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Talabalarning motivatsiyasi, qiziqishlari, individual xususiyatlari hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar ularning kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Samarali tashkil etilgan ta’lim muhiti, o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlar hamda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish kasbiy moslashuv jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Shuningdek, talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ularning o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Takliflar: Ta’lim tashkilotlarida talabalarning kasbiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus psixologik xizmatlarni takomillashtirish;

O‘quv jarayonida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni keng joriy etish;

Kasbiy yo‘naltirish ishlarini kuchaytirish va talabalarda kasbga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish;

Innovatsion va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali talabalar faolligini oshirish;

O‘qituvchilarning psixologik-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

Ta’lim muassasalarida amaliy mashg‘ulotlar, stajirovkalar va ishlab chiqarish bilan integratsiyani kuchaytirish orqali talabalarning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Abdullaev A.A. Ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. – Toshkent: Fan, 2020.

2. Karimova D.R. Talabalarning kasbiy moslashuv jarayonlari psixologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2021.

3. Raximov Sh.M. Oliy ta’limda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

4. То‘хтаев В.Н. Shaxs rivoji va kasbiy shakllanish. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
5. Yo‘ldoshev J.G. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Nazarova G.K. Ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
7. Иванов В.И. Психология профессионального становления личности. – Москва: Юрайт, 2020.
8. Петрова Н.С. Педагогические технологии в высшем образовании. – Санкт-Петербург: Питер, 2021.
9. Смирнов А.А. Психология обучения и развития студентов. – Москва: Академия, 2020.
10. Кузнецова Л.В. Профессиональная адаптatsiя молодежи. – Москва: Инфра-М, 2022.
11. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2020.
12. Слостенин В.А., Исаев И.Ф. Педагогика. – Москва: Академия, 2020